

9-sinf adabiyot. 4-BSB (25 ball)

Asar tahlili

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Navoiy” romanini jadvalda berilgan ketma-ketlik asosida tahlil qiling.

ESLATMA: tahlil yozma shaklda bajariladi!

BSB bo‘yicha o‘quvchiga qo‘yiladigan talablar:

- o‘z fikrini imlo va husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozma ifoda etadi;
- mavzuni qayta o‘rganib, o‘rganganlari asosida fikr-mulohazalarini, taassurotlarini, xulosalarini aniq, tartibli (ketma-ketlikka amal qilgan holda) hamda badiiy-tasviriy vositalar bilan boyitib, batafsil ifodalaydi.

№	Topshiriq bosqichlari	Topshiriqlarga izoh
1	Roman haqida umumiy ma’lumot	Romanda aks ettirilgan davr hamda o‘sha davrdagi asosiy muammolar ochib beriladi
2	Obrazlarga tavsif	Romandagi asosiy qahramonlarga tavsif beriladi (salbiy hamda ijobiy qahramonlarga ajratgan holda)
3	Asar tili	Romanda qo‘llangan barqaror birikmalar (maqol, tasviriy ifoda)ning qo‘llanishi, ularning asardagi o‘rni haqida to‘xtaladi
4	Voqealar rivoji	Asarda yuz bergen muammolarning kelib chiqish sabablari va ularga qanday yondashish kerakligi (o‘quvchi ushbu muammoga qanday yechim berar edi) haqida fikrlar beriladi
5	Taassurotlarim	Asardan olingen taassurotlar, asarning bugungi kundagi dolzarblik darajasi, xulosalar bayon qilinadi

Baholash mezoni (25 ball)

Asar tahlilini bosqichlar asosida, to‘g‘ri ketma-ketlikda yozgan, romanda aks ettirilgan davr hamda o‘sha davrdagi asosiy muammolarni ochib bergen; romandagi obrazlar haqida aniq, asosli fikrlar bildirgan; romanda qo‘llangan barqaror birikmalar (maqol, tasviriy ifoda)ning qo‘llanishi, ularning asardagi o‘rni haqida to‘xtalgan; asarda yuz bergen muammolarning kelib chiqish sabablari va ularga qanday yondashish kerakligi haqida fikrlar berilgan; asardan olgan taassurotlar, asarning	21 – 25 ball
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------

bugungi kundagi dolzarblik darajasi, xulosalar bayon qilingan bo‘lsa –	
Asar tahlilini bosqichlar asosida, to‘g‘ri ketma-ketlikda yozgan, romanda aks ettirilgan davr hamda o‘scha davrdagi asosiy muammolarni ochib bergen; romandagi obrazlar haqida aniq, asosli fikrlar bildirgan; romanda qo‘llangan barqaror birikmalar (maqol, tasviriy ifoda)ni topa olgan, lekin ularning asardagi o‘rni haqida to‘xtalmagan; asarda yuz bergen muammolarning kelib chiqish sabablari va ularga qanday yondashish kerakligi haqida fikrlar qisman berilgan; asardan olgan taassurotlar, asarning bugungi kundagi dolzarblik darajasi, xulosalari bayon qilingan bo‘lsa –	16 – 20 ball
Asar tahlilini bosqichlar asosida, to‘g‘ri ketma-ketlikda yozgan, romanda aks ettirilgan davr hamda o‘scha davrdagi asosiy muammolarni qisman ochib bergen; romandagi obrazlar haqida fikrlar bildirgan, lekin fikrlari to‘liq asoslanmagan; romanda qo‘llangan barqaror birikmalar (maqol, tasviriy ifoda)ni topa olmagan; asarda yuz bergen muammolarning kelib chiqish sabablari va ularga qanday yondashish kerakligi haqida fikrlar berilmagan; asardan olgan taassurotlar, asarning bugungi kundagi dolzarblik darajasi, xulosalar tugallanmay qolgandek taassurot uyg‘otgan bo‘lsa –	11 – 15 ball
Asar tahlilini yozishda bosqichlardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab romanda aks ettirilgan davr hamda o‘scha davrdagi asosiy muammolarni ochib berolmagan; romandagi obrazlar haqida fikrlar bildirgan, lekin asoslanmagan; romanda qo‘llangan barqaror birikmalar (maqol, tasviriy ifoda)ni topa olmagan; asarda yuz bergen muammolarning kelib chiqish sabablari va ularga qanday yondashish kerakligi haqida fikrlar berilmagan; asardan olgan taassurotlar, asarning bugungi kundagi dolzarblik darajasi, xulosalar juda jo‘n bo‘lsa –	6 – 10 ball
Asar tahlilini yozishda bosqichlardan yetarlicha foydalana olmagan, shu sabab romanda aks ettirilgan davr hamda o‘scha davrdagi asosiy muammolarni ochib berolmagan; romandagi obrazlar haqida fikrlar bildirmagan; romanda qo‘llangan barqaror birikmalar (maqol, tasviriy	1 – 5 ball

ifoda)ni topa olmagan; asarda yuz bergan muammolarning kelib chiqish sabablari va ularga qanday yondashish kerakligi haqida fikrlar berilmagan; asardan olgan taassurotlar, asarning bugungi kundagi dolzarblik darajasi, xulosalar yozilmagan bo‘lsa –